

**GLOBAL AXBOROTLASHUV AXBOROT
TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB SODIR ETILADIGAN
FIRIBGARLIK JINOYATINI FOSH ETISHNI TASHKIL QILISHNI
TAKOMILLASHTIRISH**

Muxammadqulov Shohruhbek Erkin o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

“Tezkor-qidiruv faoliyati kafedrası” mustaqil tadqiqotchisi

sh.muhammadqulov@mail.ru

O'tgan asrning 80-yillarida ijtimoiy-madaniy, siyosiy-iqtisodiy jarayonlardagi yirik o'zgarishlarning ko'lamini tasvirlamoqchi bo'lgan mutaxassislar mazkur jarayonlarni umumiy nom bilan atash fikrini ilgari surishdi. Mintaqalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning tezlashuvi, hayot sur'atlarining misli ko'rilmagan darajadagi tez o'zgarishi, muloqotning tezlashuvi kabi hodisalarni taqdim etgan jarayonga “globallashuv” deb nom berildi. Shundan so'ng ilmiy adabiyotlarda globallashuvga turli ta'riflar berila boshlandi. Ayrim olimlar globallashuvni o'ta salbiy hodisa deyishsa, ba'zilari uning ijobiy xususiyatlarini asoslashga urinishdi.

Bugun globallashuv er yuzining hamma hududlarida ijtimoiy-siyosiy hayotdagi barcha jarayonlarga o'zining muayyan ta'sirini o'tkazmoqda. Bunday ta'sirning bir xil emasligi dunyo mamlakatlarining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, axborot, ma'naviy salohiyatlari va geosiyosiy omillar bilan chambarchas bog'liq. Globallashuvning mintaqalarga salbiy ta'sirini kamaytirish, va aksincha, ijobiy ta'sirini kuchaytirish uchun shu hodisaning mohiyatini chuqurroq anglash, uning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish bugungi kunning muhim talablaridan biri hisoblanadi. Chunki, globallashuvning ta'sir imkoniyatlari global axborotlashuv fonida yaqqol namoyon bo'lib axborot oqimining mintaqalarda yoyilishida hech qanday to'siq yoki chegaraning mavjud emasligi bilan xarakterlanadi. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoev o'zining “Yangi O'zbekiston strategiyasi» nomli asarida

ushbu jarayon haqida quyidagicha fikr bildirgan: «Globallashuv va axborot xurujlari, turli buzg'unchi g'oyalar ta'sirida milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarimizga qarshi tahdid va xatarlar tobora kuchaymoqda. Terrorizm, ekstremizm, transmilliy va kiberjinoyatchilik, odam savdosi, narkotrafik kabi tahdidlar xavfi tobora ortib bormoqda. Milliy ma'naviyatimizga mutlaqo begona bo'lgan zararli g'oyalar, tushuncha va qarashlar chegara buzmasdan, bildirmasdan, ta'bir joiz bo'lsa, «chaqirilmagan mehmon» bo'lib xonadonimizga, jamiyatimizga, eng yomoni, murg'ak bolalarimizning pokiza qalbi va ongiga kirib kelayotganidan ham ko'z yuma olmaymiz»¹.

Yuqorida ta'kidlanganidek, globallashuv jarayonining kuchayishi, global axborotlashuvning ta'sir imkoniyatlari oshishini ta'minlamoqda. O'z o'rnida global axborotlashuv g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlarda ko'proq namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 24-mart kuni birinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumining ochilish marosimidagi nutqida: "O'zbekistonni qonun va adolat mustahkam qaror topgan demokratik mamlakatga aylantirish, mustaqil va kuchli sudhuquq tizimini shakllantirish – eng oliy maqsadlarimizdan biri sifatida kun tartibiga qo'yildi... Ma'lumki, hozirgi zamon butun jahon iqtisodiyoti raqamlashtirish jarayoniga o'tayotgan, "yashil" texnologiyalar va innovatsion taraqqiyot har qanday soha va biznes rivoji uchun ustuvor ahamiyat kasb etayotgan bir davrdir", deya ta'kidlab o'tdilar. Darhaqiqat, shiddat bilan rivojlanib borayotgan bugungi kunda mamlakatimiz taraqqiyoti uchun xizmat qilayotgan axborot texnologiyalari ham tobora yangilanib bormoqda. Haqiqatan ham, so'nggi o'n yilliklarda axborot texnologiyalari davlat va insoniyat hayotining barcha jabhalari, jumladan, aloqa, davlat xizmatlari ko'rsatish, bank va moliya tizimi, sog'likni saqlash, ta'lim kabi muhim yo'nalishlariga kirib keldi. Tabiiyki, bu jinoyatchilarni aynan shu sohaga jalb etdi. Chunki bu turdagi jinoyatlarni uzoq masofadan turib ham sodir etish va shaxsning aniqlanish ehtimoli kamligi ularning dunyo qamrovida yil sayin o'sishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa huquq-tartibot idoralari, jumladan, tergov organlari xodimlari nafaqat yurtimiz

¹Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, - 2021. – B 268.

sarhadlari, balki uning kibermakonida ham jinoyatlarning oldini olish, axborot tarmoqlarida sodir etilgan jinoyatlarni esa tergov qilish vazifasini yuklaydi.

Mazkur sohada bugungi kunda ko'plab protsessualist va kriminalist olimlar tadqiqotlar olib bormoqda. Sababi yangi jinoyat turi yangicha tergov metodikasi va tergov harakatlari o'tkazishning yangi taktikasini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Jumladan, xorijiy olimlardan K. Braun, D. L'yuis , F. Vil'yams, B. Kolin, D. Shinder, D. Denninglar, MDH davlatlaridan esa Ye.A. Ruskevich , G.R. Grigoryan, Ye.A. Markova va N.V. Letyolkinlar mazkur sohada o'z tadqiqot ishlarini olib borgan. Yuqorida nomlari keltirilgan olimlar o'z tadqiqot ishlarida, asosan, axborot texnologiyalari sohasida sodir etiladigan jinoyatlar va ularning huquqiy tavsifiga e'tibor qaratgan bo'lsa, bizning tadqiqotimiz doirasida axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlarni tergov qilishda jamoatchilik bilan hamkorlik masalalari o'rganilgan. Material va metodlar Maqolada axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlarni ishni sudga qadar yuritish bosqichida aniqlash, fosh etish va oldini olishda jamiyatda mavjud kuch va imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun tergov organlari hamda jamoatchilik o'rtasida hamkorlik rishtalarini yanada takomillashtirish masalasi tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida analiz, qiyosiytahlil, deduksiya, mantiqiy, statistik, tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot natijalari Kiberhujumlar borasida xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha xalqaro Symantec Security tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, hozir har soniyada dunyodagi har 12 nafar insondan biri kiberhujum qurboniga aylanmoqda. Kiberjinoyatlarning turlari ham kundankunga ko'payib bormoqda. Shu turdagi jinoyatlarni tasniflashga oid ko'plab qarashlar mavjud. Biroq ularning eng asosiysi xalqaro huquqiy hujjatlar orqali belgilangan. Jumladan, Yevropa Kengashining "Kiberjinoyatchilik to'g'risida"gi Konvensiyasi (Budapesht shahri, 2001-yil 23-noyabr)da axborot texnologiyalari sohasida sodir etiladigan jinoyatlar 4 guruhga ajratilgan. 2003-yil 28-yanvarda Strasburg shahrida mazkur Konvensiyaga qo'shimcha protokol qabul qilinishi natijasida kiberjinoyatlar tasnifiga yana 1 ta guruh jinoyatlar qo'shildi.

O'zbekistonda ham so'nggi uch yilda kiberjinoyatlar 8,3 baravarga ko'payib, umumiy jinoyatchilikning 5 foizini tashkil etmoqda. Masalan, kibermakonda firibgarlik bilan bog'liq jinoyatlar 13 baravar, o'g'rilik 20, tovlamachilik, tuhmat va haqorat qilish bilan bog'liq jinoyatlar esa 4,9 baravarga ortgan [13]. Birgina Toshkent shahrining o'zida 2021-yil davomida Toshkent shahar IIBB huzuridagi Tergov boshqarmasi va uning quyi tizimlari tomonidan 735 ta (2020-yilda 10 ta) holatda kompyuter texnikasi va mobil aloqa vositalaridan foydalanib sodir etilgan firibgarlik, 1052 ta (2020-yilda 24 ta) holatda shaxsiy hisob raqamlarni boshqarish dasturlariga ruxsatsiz kirib sodir etilgan o'g'rilik, jami 1787 ta (2020-yilda 34 ta) jinoyatlar bo'yicha dastlabki tergov harakatlari olib borilgan.

Mutaxassislarining tergov harakatlari o'tkazishda ishtirok etishi haqli ravishda tergov samaradorligining ajralmas shartidir. U nafaqat ishtirok etishi shart bo'lgan, balki ishtirok etish imkoni bo'lgan barcha hollarda tergov harakatlariga jalb etilishi lozim. Bugungi kunda amaliyotimizda axborot texnologiyalari sohasida sodir etilgan jinoyatlar bo'yicha o'tkazilayotgan tergov harakatlarida mutaxassis ishtirokini ta'minlash borasida ham bir qator muammolar mavjud. Sababi mutaxassis kimligi, unga qo'yiladigan talablar va uni ishda ishtirok etishga jalb qilish tartibi yetarli tarzda jinoyat-protsessual qonunchilikda yoritilmagan. Bu esa olimlar va amaliyotchilar o'rtasida turli bahs-munozaralarga sabab bo'lmoqda. Jinoyat protsessiga jalb qilingan mutaxassislar kompetensiyasini aniqlash borasida alohida to'xtalib o'tishni lozim deb topdik. Qiyos qilish mumkin bo'lsa, shaxmat piyodasi muayyan bosqichga yetganda, farzin bo'lib, o'z qirolini himoya qilgandek, jinoyat protsessi taxtasida qadammaqadam odimlayotgan mutaxassisning yuqori darajaga erishganligi jinoyat protsessida haqiqatni himoya qilishga, odillikni ta'minlashga xizmat qiladi. Chunki birgina so'z, birgina dalil jinoyat ishining yakuniy qaroriga ta'sir etishi mumkin. Kasbiy kompetentlik esa mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi hamda ularning amalda yuqori darajada qo'llay olinishi hisoblanadi. Shu bilan birgalikda, mazkur toifadagi jinoyat ishlari yuzasidan mutaxassislarining bilimlaridan yetarli darajada foydalanmaslik ning

asosiy sabablaridan biri – bu mutaxassislarning ixtisosligi, ularning faoliyati, qayerda xizmat olib borishi haqidagi ma'lumotlarning yetishmasligi deb hisoblash mumkin. Uning yechimi sifatida bir guruh olimlar tergovchilarga xizmatda foydalanish grifi orqali ilmiy-tadqiqot muassasalari, oliy o'quv yurtlari, ixtisoslashtirilgan muassasalar, jamoat birlashmalari (madaniy, tarixiy, numizmatik va boshqa) manzili va telefon raqamlari aks etgan ma'lumotnomalar yoki reestrlar yaratishni taklif etgan. Boshqa mualliflar esa qachon qaysi mutaxassisni chaqirishni aniqlab beruvchi dastur yaratish g'oyasini ilgari surgan.

Bizning nuqtai nazarimizcha, jamoatchilikni tergovga qadar tekshiruv va tergov organlari bilan bog'laydigan eng yaxshi yo'l – bu bizga zarur bo'lgan mutaxassislar faoliyat olib boradigan mutasaddi tashkilotlar va IIV o'rtasida o'zaro hamkorlikka oid memorandumlar tuzishdir. Mazkur memorandum asosida axborot texnologiyalari yo'nalishidagi korxonalar, tashkilot va muassasalar tavsiyanomasi hamda shaxsning yozma roziligi orqali tergov harakatlarida ishtirok etishi mumkin bo'lgan mutaxassislar, ularning shaxsi hamda kompetensiyasini tasdiqlovchi hujjatlar, ish staji va faoliyati, yashash va ishlash manzili, telefon raqamlari, elektron manziliga oid ma'lumotlar jamlangan yagona elektron baza yaratilishi zarur. Mutaxassis jinoyat ishida ishtirok etishga jalb etilganda, bevosita mazkur baza orqali qayd etilishi, uning rahbari xodimi haqiqatda tergovda ishtirok etayotganligini bilish, mutaxassisning ish vaqti uchun to'lovi saqlanib qolinishi hamda IIO tomonidan tergovdagi ishtiroki uchun pul to'lanishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Bunday bazaning yaratilishi bizga bir qator afzalliklar beradi: Birinchidan, avvalo, tergovga qadar tekshiruv va tergov organlari xodimlarining vaqti tejaladi. Ikkinchidan, jinoyat ishlarini yuritish sifati va samaradorligi oshadi, chunki aynan ishtiroki talab etilayotgan mutaxassisni qayerdan qidirish va kimni qidirish lozimligi aniqlanadi. Uchinchidan, protsessual chiqimlar kamayadi, chunki mutaxassisni tergov yuritilayotgan bo'limga eng yaqin hududdan qidirish boshlanadi. To'rtinchidan, mazkur hamkorlik mutasaddi tashkilotlar o'rtasidagi memorandum asosida tuzilgach, sansalorlikka yo'l qo'yilishining oldini oladi. Axborot texnologiyalari sohasida jinoyatlarni tergov qilishda amaliyotda uchrayotgan,

bevosita bank va to'lov tizimlari bilan bog'liq bo'lgan bir nechta muammolarni ham ko'rib chiqsak. Birinchidan, bank, to'lov tashkilotlari va to'lov operatorlariga qo'zg'atilgan jinoyat ishi yuzasidan asoslantirilgan so'rov xatlari taqdim etilganda (prokuror sanksiyasi bilan), bank va to'lov tizim operatorlari tomonidan so'rov xatlariga to'liq javob bermasdan, so'rov xatlarining ijrosi 10 kundan 15 kungacha ta'minlanayotganligi, bu esa, o'z navbatida, bitta jinoyat ishi bo'yicha noqonuniy topilgan mablag'lar yo'naltirilgan manzillarini aniqlash uchun 2 oydan 3 oygacha vaqt talab etayotganligi sababli ushbu turdagi jinoyatlarni issiq izidan fosh etishda jiddiy qiyinchiliklar keltirib chiqarmoqda. Ikkinchidan, bank plastik kartasi yoki elektron pullar o'tkazmasi to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etishning markazlashgan tizimi mavjud emasligi natijasida bitta jinoyat ishi bo'yicha plastik kartalarning tranzaksiyalariga oid ma'lumotlarni prokuror sanksiyasi asosida olish uchun turli banklar (Xalq banki, Agrobank, Infinbank, Ipak yo'li bank), to'lov tizimi operatorlari (Uzcard, HUMO), to'lov tashkilotlari (Click, PayMe, Apelsin) kabi 8–10 ta idoralarga so'rov xati yetkazib berish va ularning javoblarini kutish zarurati tug'ilmoqda. Mazkur muammolarni bartaraf etish, shuningdek, tergov idoralarining jamoatchilik bilan hamkorligini yanada takomil lashtirish maqsadida quyidagilarni taklif etamiz: Birinchidan, to'lov tizimi operatorlari, to'lov tashkilotlari, to'lov agentlari va subagentlari bilan Ichki ishlar vazirligi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri axborot almashinuvi yo'lga qo'yilishi lozim. Ikkinchidan, Markaziy bank tomonidan bank plastik kartasiga oid ma'lumotlarni huquq-tartibot idoralari so'roviga asosan taqdim etishning yagona avtomatlashtirilgan tizimi shakllantirilishi maqsadga muvofiq. Uchinchidan, yo'qolgan va o'g'irlangan bank plastik kartalari to'g'risida "SOS" xabar beruvchi mobil ilova ishlab chiqish va ular to'g'risidagi yagona ma'lumotlar bazasini shakllantirish jinoyatlarni fosh etish uchun bir qator qulayliklar keltirib chiqaradi. To'rtinchidan, fosh etilmagan jinoyat ishlari yuzasidan tergov davomida jinoyatni sodir etgan noma'lum shaxsni aniqlashda jamoatchilik vakillari, masalan, elektron va lyuta ayriboshlash bilan shug'ullanuvchi fuqarolarni jalb etish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoniga ko'ra tasdiqlangan "2022–2026-

yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirishga bag'ishlangan 2-ustuvor yo'nalishining birinchi maqsadi ham huquqni muhofaza qilish organlariga mulkiy huquqlarni muhofaza qilish majburiyatini yuklaydi.

Xulosa o'rnida ta'kidlashimiz lozimki, mavjud tahdidlarni yengish uchun hammamiz – ham huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ham fuqarolarimiz bir yoqadan bosh chiqarib, ogoh bo'lsak, o'z taqdirimizni Vatan taqdiri bilan bog'lab, befarqlikdan qochsak, Prezidentimiz belgilagan strategiya va islohotlarni amalga oshirishda jiplashib, bir tan-u bir jon bo'lsak, tinch va osuda yurtimiz ravnaq topaveradi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, yangi asrning so'nggi yigirma yilligida sodir bo'layotgan jarayonlarni kuzatish va tahlil qilish natijasida ayrim fikr-mulohazalarni bildirish ehtiyoji yuzaga chiqadi:

Birinchidan, internet tarmog'ining rivoji axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan ilmiy, ma'naviy-madaniy maqsadlar bilan birga geosiyosiy maqsadlardan foydalanish imkonini yaratdi. Mazkur imkoniyat axborot makonida qudratli texnik, texnologik hamda g'oyaviy-mafkuraviy tahsir imkoniyatlarini kuchayish tendensiyalarini shakllantirmoqda;

Ikkinchidan, global axborotlashuv jarayoni bir mamlakat doirasida va xalqaro maydonda iqtisodiy va siyosiy munosabatlarni yo'lga qo'yish, rivojlantirish maydonini yaratdi. Biroq, global axborotlashuvning ta'sir kuchidan g'arazli maqsadlarda foydalanish imkoniyati ham oshib bormoqda;

Uchinchidan, global xavfsizlikni ta'minlashda axborotning ijobiy roli bilan birga negativ ta'sir darajasi ham ortib borayotgani kuzatilmogda;

To'rtinchidan, global axborotlashuv sharoitida davlatning axborot siyosatiga yangicha, zamonaviy yondashish zaruratini paydo qilmoqda. Bunday yondashuvning asosida milliy xususiyatlar bilan to'yintirilgan, tashqi muhitning zararli ta'sirlariga bardosh bera oladigan jamiyatni shakllantirish asosiy vazifa sifatida belgilanmogda;

Beshinchidan, global xborot makonida xalqaro ziddiyatlarni bartaraf etish maqsadida axborot texnologiyalarining o'ziga xos xususiyatlaridan foydalanish, uning xalqaro huquqiy mexanizmlarini yaratish jarayonida mamlakatning pozitsiyasini ilgari surish talabi har doimgidan muhim.

Shu sababdan, yuqorida keltirilgan jihatlarni tahlil qilish, aniq chora va vositalarni ishlab chiqish, bugungi davr chaqiriqlariga javob berish imkonini oshirishi shubhasiz.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. –Тошкент: Ўзбекистон, 2022. – 80 б.
2. Ўзбекистон Республикасининг «Оммавий ахборот воситалари тўғрисида»ги Қонуни (янги таҳрири) // Ўзбекистон Республикасининг оммавий ахборот воситалари тўғрисидаги қонунчилик ҳужжатлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2007. –80 б.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2012 йил 21 мартдаги «Замонавий ахборот-коммуникация технологияларини янада жорий этиш ва ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори. www.lex.uz/.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 22 январдаги «2017 – 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегиясини «Фаол тадбиркорлик, инновацион ғоялар ва технологияларни қўллаб-қувватлаш йили»да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида»ги ПФ-5308-сонли Фармони. www.lex.uz/.
5. Williams P. Organized crime and cybercrime: synergies, trends, and responses crime research. Available at: <http://www.crime-research.org/library/Cybercrime.htm/> (accessed 23.03.2022).
6. Collin B. The future of cyberterrorism: where the physical and virtual worlds converge crime research. Available at: <http://www.crime-research.org/library/Cyberter.htm/> (accessed 23.03.2022).

7. Shinder D.L., Tittel E. Scene of the Cybercrime: Computer Forensics Handbook BookReader. Available at: <http://bookre.org/reader?file=495251/> (accessed 23.03.2022)

8. Denning D.E. Activism, hacktivism, and cyberterrorism: the internet as a tool for influencing foreign policy information warfare site. Available at: <http://www.iwar.org.uk/cyberterror/resources/denning.htm/> (accessed 23.03.2022).

9. Russkevich E.A. Differentiatsiya otvetstvennosti za prestupleniya, sovershaemye s ispol'zovaniem informatsionno-kommunikatsionnykh tekhnologii, i problemy ikh kvalifikatsii [Differentiation of responsibility for crimes committed with the use of information and communication technologies and problems of their qualification]. Doctor's degree dissertation. Moscow, 2020, 162 p.

10. Окинавская хартия глобального информационного общества. <https://docs.cntd.ru/document/901770887>.

11. Симоньян М: «Ни одна война в последние годы не начиналась без поддержки прессы» // URL: <https://russian.rt.com/world/video/405686-simonyan-smi-vlast-voynu>.

12. Елена Крамарова. Глобальная информатизация: вызовы современному миру порядку. <https://riss.ru/article/16537/>.

13. Шрайберг Я.Л. Проблемы информационного общества. http://www.gpntb.ru/win/ntb/ntb2000/4/f04_19.html.

14. Расторгуев С.П. Информационное оружие и проблема алгоритмической неразрешимости перспективности для информационных самообучающихся систем. <http://evartist.narod.ru/text4/58.htm>.